

QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Uralova Matlyuba

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: m.uralova@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Qoraqalpog‘iston xududida mehmonxona xo‘jaligining hozirgi holatini tizimli jihatdan tahlil etishga qaratilgan. Ma’lumotlar rasmiy statistika asosida yig‘ildi. Tadqiqotda xorijiy sayyohlar soni, ichki turizm mehmonxonalar shakllari va unga xizmat ko‘rsatishda infratuzilma, xizmat sifati, hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, hududiy o‘ziga xosliklar, mavsumiylik va marketing salohiyati baholandi. Olingan natijalar asosida sohada mavjud asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston, mehmonxona xo‘jaligi, turizm infratuzilmasi, xizmat sifati, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, mavsumiylik, marketing salohiyati.

Аннотация

Данное исследование направлено на системный анализ текущего состояния гостиничного хозяйства в Республике Каракалпакстан. Данные были собраны на основе официальной статистики. В исследовании рассмотрены объем въездного и внутреннего туризма, формы гостиничных услуг, уровень инфраструктуры, качество сервиса и экономические показатели. Кроме того, проведена оценка региональных особенностей, сезонности и маркетингового потенциала. На основе полученных результатов выявлены ключевые проблемы отрасли и предложены практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Каракалпакстан, гостиничное хозяйство, туристическая инфраструктура, качество услуг, экономические показатели, сезонность, маркетинговый потенциал.

Abstract

This study aims to systematically analyze the current state of the hotel industry in the Republic of Karakalpakstan. Data were collected based on official statistics. The research examines inbound and domestic tourism, types of hotel services, infrastructure quality, service standards, and key economic indicators. Regional specificities, seasonality, and marketing potential were also assessed. Based on the findings, major challenges in the sector were identified, and practical recommendations for improvement were proposed.

Keywords: Karakalpakstan, hotel industry, tourism infrastructure, service quality, economic indicators, seasonality, marketing potential.

KIRISH

Turizm sohasi har bir mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, mehmonxona xo‘jaligi — sayyohlarni joylashtirish, ularning qulayligini ta‘minlash va xarajat imkoniyatlarini o‘zida mujassam etuvchi asosiy xizmat turi sifatida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston bo‘ylab, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm salohiyati uyg‘onishi, investitsiya oqimining oshishi va infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilishi mehmonxona sektorining jadal rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Rivojlanishga hukumat tomonidan ishlab chiqilgan farmon va qarorlar asos bo‘ladi.¹

Qoraqalpog‘iston o‘zining noyob tabiat, madaniyat yodgorliklari, Amudaryo deltasi bioxilma-xilligi va xalq hunarmandchiligi bilan milliy hamda xalqaro sayyohlarni jalb etadi. Biroq mehmonxona xo‘jaligi infratuzilmasidagi qator kamchiliklar — joylashuv nuqsonlari, xizmat ko‘rsatish sifatining notengligi, mavsumiy bandlik tebranishlari va marketing strategiyasining yetarlicha rivojlanmaganligi sohaning to‘liq salohiyatidan foydalana olishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Qoraqalpog‘istonda mehmonxona xo‘jaligining hozirgi holatini kompleks tahlil qilib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, xizmat sifati va mavsumiylik omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish; hamda xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotni olib borish uchun asos sifatida Turizm qo‘mitasi tomonidan yuritilgan statistik ma‘lumotlar tahlil qilindi. Ma‘lumotlar raqamlarda xorijiy sayyohlar soni va ichki turizm ko‘rsatkichlari hamda joylashtirish vositalari, ularga xizmat ko‘rsatishda turoperatorlar faoliyati olingan. Quyida 1-jadvalda buni ko‘rish mumkin.

1-jadval

Qoraqalpog‘istonda 2024-yil uchun mehmonxona xo‘jaligini yuritishda hozirgi holati tahlili²

	Xorijiy sayyohlar soni	Ichki turizm ko‘rsatkichlari	Joylashtirish vositalari	Mehmonxona, otel, butik otel, motel, spa mehmonxona	Oilaviy mehmon	Xostel	Turoperator	Turagent	Gid-ekskursavod
Ko‘rsatkichlar	13 919,7	1185	113	27	51	28	67	13	39

Mazkur tadqiqotda Qoraqalpog‘istonda so‘nggi yilda turizm sohasi bo‘yicha qayd etilgan asosiy statistik ko‘rsatkichlar aks ettirilgan. Jumladan, xorijiy sayyohlar oqimi 13,9 million kishiga yetgani, hudud ichida esa 1,2 millionga yaqin sayyoh turizm faoliyatida ishtirok etgani ko‘rsatilgan.

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 2022 — 2026-yillarda “Qoraqalpog‘iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 545-son qarori.

² Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan jadval

Joylashtirish vositalarining umumiy soni 113 donani tashkil etib, ular tarkibida mehmonxona, otel, butik, motel va spa mehmonxonalar kabi turar joy turlari soni 27 ta, oilaviy mehmon uylari — 51 ta, xostellar esa 28 tani tashkil qilmoqda.

Shuningdek, turizm xizmatlari ko'rsatkichlari ham aks ettirilgan bo'lib, 67 ta turoperator, 13 ta turagent, hamda 39 nafar gid-ekskursavod faoliyat yuritayotgani ko'rsatilgan.

Tadqiqot Qoraqalpog'istonda turizm sohasining rivojlanish sur'atlarini, infratuzilma va xizmat ko'rsatish darajasini ko'rsatib berish bilan birga, soha salohiyati haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Turizm sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, xorijiy sayyohlar oqimi, ichki turizm faolligi, joylashtirish vositalarining kengayishi va xizmat ko'rsatish tarmog'ining o'sishi mamlakatning turizm salohiyatini baholashda asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog'istonda turizm sohasining hozirgi holati bir yillik statistik ko'rsatkichlar asosida o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida deskriptiv yondashuv tanlandi. Bu metod orqali mavjud holatni tahlil qilish, ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbiy tafovutlarni aniqlash hamda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholash imkoniyati yaratildi. Deskriptiv metod miqdoriy ma'lumotlarni tizimli tarzda tasniflash va ularni asosli tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u natijaviy prognozlar yoki sabab-oqibat aloqalaridan ko'ra holatning to'liq va aniq tasvirini taqdim etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida turizm sohasi tarkibiy qismlarining o'zaro nisbatlari aniqlanib, ularning amaldagi vaziyatdagi ahamiyati ko'rsatib berildi. Bu esa kelajakdagi strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL VANATIJARLAR

Iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar matematik ifoda orqali tavsiflaydigan va amaliy ma'lumotlar asosida ularni baholashga imkon beradigan ilmiy usuldir. Bu model yordamida nazariy farazlar real statistika asosida tekshiriladi, tahlil qilinadi va kelajak uchun prognozlar tuziladi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ko'p o'zgaruvchili lineer regressiya modeli asosida xorijiy sayyohlar soni (natijaviy o'zgaruvchi)ni boshqa omillar orqali tushuntirish nazarda tutiladi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \varepsilon$$

Tadqiqot iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Har bir β koeffitsiyent orqali aniqlanadigan marjinal ta'sir yordamida qaysi omil sayyohlar oqimiga ko'proq ta'sir qilayotgani aniqlanadi. Model asosida samarador takliflar ishlab chiqish mumkin (masalan, gidlar sonini oshirish xorijiy sayyohlar sonini qanchaga oshiradi). Agar modelda statistik jihatdan ishonchli aloqalar aniqlansa, u holda *forecasting* vazifasida ham foydalanish mumkin.

2-jadval
Qoraqalpog‘istonda mehmonxonona xo‘jaligini yuritishda ekonometrik tahlili¹

№	O‘zgaruvchi nomi	Belgilanishi	Qiymat
1.	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	Y	13 919.7
2.	Ichki turizm ko‘rsatkichlari (ming kishi)	X1	1185
3.	Mehmonxonalar soni	X2	113
4.	Turoperatorlar soni	X3	67
5.	Turagentlar soni	X4	13
6.	Gid-ekskursavodlar soni	X5	39

Model strukturaviy nuqtayi nazardan foydali, chunki:

a) Turizm infratuzilmasi (mehmonxonalar, operatorlar, gidlar) o‘sishi xorijiy sayyohlar sonining oshishiga olib keladi;

b) Ichki turizm faoliyati xorijiy turizmga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali bilvosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi;

c) Har bir β koeffitsiyent siyosiy qarorlar qabul qilishda yo‘nalish sifatida ishlatiladi.

Ekonometrik model yordamida turizm sohasiga ta‘sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda, har bir mustaqil o‘zgaruvchining natijaviy o‘zgaruvchiga, ya‘ni xorijiy sayyohlar soniga ta‘siri muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo‘limda turizm ko‘rsatkichlari orasidagi nazariy bog‘liqliklar va har bir o‘zgaruvchining kutilgan yo‘nalishi ko‘rib chiqiladi. Kutilgan ta‘sirlarni oldindan aniqlash iqtisodiy jarayonlarni tushunishda, shuningdek, model natijalarini baholash va siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘ladi. Shu bois, har bir omilning sayyohlar oqimiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi, uning ijobiy yoki salbiy bo‘lishi haqida nazariy fikrlar asosiy tushunchalar sifatida taqdim etiladi.

3-jadval
Tadqiqotda mehmonxonona xo‘jaligini yuritishda o‘zgaruvchilarga kutilayotgan ta‘siri izohi²

O‘zgaruvchi	Kutilgan ta‘siri	Izoh
x1 (Ichki turizm)	(+)	Mahalliy infratuzilma sayyohlar tajribasini yaxshilaydi
x2 (Mehmonxonalar soni)	(+)	Joylashtirish vositalarini ko‘proq sayyoh qabul qilish imkoniyati bor
x3 (Turoperatorlar)	(+)	Turoperatorlar ko‘proq tashkillashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi
x4 (Turagentlar)	(+)	Sayyohlarni jalb qilishda vositachi sifatida xizmat qiladi
x5 (Gidlar)	(+)	Madaniy-ma‘rifiy xizmat sifatini oshiradi

¹ Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan ekonometrik jadval

² Tadqiqotchi ishlanmasi

Yuqoridagi natijalar tahlil qilingan o'zgaruvchilar bilan turizm sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ichki turizm ko'rsatkichlari mahalliy infratuzilmani rivojlantirib, sayyohlarning umumiy tajribasini yaxshilaydi va xorijiy sayyohlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Mehmonxonalar sonining ko'pligi joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, turoperatorlar va turagentlarning faoliyati sayyohlik xizmatlarini samarali tashkil etish va yangi mijozlarni jalb qilishga ko'maklashadi. Gid-ekskursavodlar esa madaniy-ma'rifiy xizmatlar sifatini oshirib, sayyohlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Mazkur o'zgaruvchilar turizm sohasining barqaror o'sishiga va xorijiy sayyohlar sonining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu yo'nalishlardagi infratuzilmani yanada rivojlantirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha strategik choralar ko'rilishi tavsiya etiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining turizm orqali diversifikatsiyasi va global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotni ikkinchi qismida Qoraqalpog'istonda turizm ko'rsatkichlarini 2016-yildan boshlab 2024-yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilishga tayyorgarlik ko'rilmoqda. Yuqoridagi bir yillik tahlil kichik bir tadqiqot sifatida olingan. Kichik tadqiqotimizda ko'rsatkichlar xorijiy sayyohlar soniga eng katta ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga yordam beradi. Hozircha model konseptual tahlil sifatida xizmat qiladi. To'liq iqtisodiy tahlil uchun ko'p yillik statistik ma'lumotlar zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil qilingan o'zgaruvchilar xorijiy sayyohlar sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Ichki turizm ko'rsatkichlarining rivojlanishi mahalliy infratuzilmaning yaxshilanishiga xizmat qilib, sayyohlarning umumiy qoniqishini oshiradi. Mehmonxonalar sonining ko'payishi joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, sayyohlar oqimini rag'batlantiradi. Shuningdek, turoperatorlar va turagentlarning faoliyati turizm xizmatlarini samarali tashkil etishga hamda sayyohlarni jalb qilishga hissa qo'shadi. Gid-ekskursavodlarning madaniy-ma'rifiy xizmatlarni takomillashtirishdagi roli sayyohlik salohiyatining oshishiga sabab bo'ladi.

Shu munosabat bilan, mazkur sohalarni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan kompleks choralar ko'rilishi lozim. Bu esa turizm sohasining barqaror o'sishiga va mamlakat iqtisodiyotining turizm orqali diversifikatsiyasiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 2022–2026-yillarda “Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 545-son qarori.

2. Uralova, M. (2024). Povyshenie zapolnyaemosti gostinits v Karakalpakskoy oblasti. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2(6), 233–239.

3. https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/08/tourism/?utm_source=chatgpt.com

4. https://www.researchgate.net/publication/382193192_QORAQALPOG_'IST_ON_MINTAQASIDA_MEHMONXONALAR_BANDLIGI_KO'_RSATKICHLARI_NI_OSHIRISH



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**